

SHAXS MA'NAVYIY-AHLOQIY MADANIYATI TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA TUZILISHI.

Buxoro inavatsiyalar universiteti magistri

Ibragimov Sanjar Saidovich

Jamiyatda shaxsining ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish masalasi murakkab va ko'p qirrali bo'lib, o'z mohiyati bilan nazariy va amaliy tahlilni talab etadi. Buning uchun, avvalo, "Shaxs". "Ma'naviyat", "Axloq", "Madaniyat" tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniqlashtirib, so'ngra "shaxs ma'naviy-axloqiy madaniyati", gap iborasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi deb tushunamiz.

Ma'naviyatning mohiyatini birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov to'liq ta'riflab: "Ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustaxkamlaydi, vojudini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman", deb ta'kidlagan. Ma'naviyatning nazariy va amaliy masalalari keng va mukammal yoritilgan. "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "Istiqlol va ma'naviyat", "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida", "O'zbekistonning ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari", "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" va boshqa asarlarida ma'naviyat va ma'rifatning nazariy va amaliy muammolari ifoda etilib, fan va amaliy faoliyat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy xulosalar, falsafiy qoida va dasturiy yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgan. "Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun, - degan I.A.Karimov, - qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilish kerak. Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchalik boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi, fojialar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi" (6:53).

A.Ibrohimov va N.Jo'raevlarning yozishicha, “Ma’naviyat-jamiyatning, millatning av ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyat idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha. Ma’naviyat inson va jamiya madaniyatning negizi, inson va jamiyat hayoti ma’lum yo‘nalishining bosh omilidir. U muayyan iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o‘zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi”(33;46).

Faylasuf olim E.YUsupov “Ma’naviyat inson axloqiva odobi, bilimlari, iste’dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog‘langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan mushtarak tizimdir”, deb ta’rif beradi va ma’naviyat mohiyatini belgilovchi to‘rt tarkibiy qismini: axloq-odob; bilim, ilm va amaliy malakalar, iste’dod, qobiliyat; axloqiy, ilmiy etuklikning natijasi bo‘lgan iymon, e’tiqod, vijdon, insof, ixlos; inson bilimlari, amaliy tajribasini umumlashtirishga, faoliyatiga yo‘nalish berishga qaratilgan bunyoqarash va mafkuradir, deb ko‘rsatadi(79;34).

SHuningdek, J.Tulenov va Z.G‘afurovlar ham mustaqillik yaratib bergan ijtimoiy-iqtisodiy, siyoiy-huquqiy, mdaniy shart-sharoitlar hamda umumbashariy qadriyatlar negizida ma’naviyatning yuksalib borishiga yaratilgan imkoniyatlar xususida fikr yuritadilar(66;22).

Olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda biz quyidag fikrga keldik: ma’naviyat – bu insonning bilimliliigi, vatanparavarlik tuyog‘usiga egaligi xulq-odob me’yorlari, mehnatsevarlik xislatlari mujassamlashgan hamda ezgulikni namoyon etuvchi botiniy tuyg‘ular majmuidir.

Mazkur olimlar inson ma’naviyatining mohiyati bir-biri bilan uzviy bog‘langan aqliy, axloqiy, ilmiy-amaliy, mafkuraviy fazilatlarning yaxlit tizimi ekanligini ham chuqur tahlil qilib berganlar. Vatanparvarlk, millatparvarlik, milliy iftixor tuyg‘ulari, ona tiliga hurmat, tabiatni muhofaza etish, har qanday sharoitda ona-yurt ma’naviyatini, davlatimiz mustaqilligini qullab-quvvatlash, sharqona urf-odatlarimizga,

qonunlarimizga, milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarash kabi xislatlarning hammasi ma'naviyat bilan bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida axloq bilan bog'lanib ketadi.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida shaxsning xulq-atvori, intizomi, yurish-turishi va shaxsiy hayotidagi va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi muayyan me'yor va qoidalar sifatida, yosh avlodda, - halollik, poklik, burch, vijdon, e'tiqod, olijanoblik, fidoyilik, Vatanga muxabbat, sadoqat, elni e'zozlash, yo'qsirlarga ko'maklashish kabi bir necha insoniy fazilatlarini tarbiyalovchi kuch hamdir. Ahloq yo'q joyda inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi. Faqat mukammal ahloq ta'sirida yosh avlod o'zini, yashash mazmunini va maqsadini, ota-ona, halq, millat, jamiyat oldidagi mas'uliyati va burchini, majburiyatini aniq anglaydi, baxt, iymon, e'tiqod, diyonat, yaxshilik, yovuzlik, yomonlik, adolat kabi fazilatlarini to'g'ri idrok etadi, o'z-o'zini idora qilish me'yorlarini tushunib etadi va shuning uchun mohiyatan hamda mazmunan dunyoqarash bilan bog'liq bo'ladi.

Axloqning muhim belgilaridan biri – odobdir. Odob axloqiy fazilatlar shaxsning kundalik hayoti, faoliyatida aks etayotganligini ko'rsatuvchi mezondir, chunki, ahloq kishilarning xulq-atvori, muomala madaniyati, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatni, jamoada, oilada o'zini tuta bilishni tarbiyalaydiyu o'ziga yuklatilgan mas'uliyatni bajarishga, o'z sha'ni va g'ururini saqlashga undaydi. Shu nuqtai nazardan u dunyoqarash mazmunini to'ldiradi. Bular har bir kishining qadr-qiymatini, uning dunyodagi. Ijtimoiy hayotdagi o'rnini, jamiyatga munosabati va mas'uliyatini hamda o'z qarashlarini aniqlash uchun omil rolini o'taydi.

Odobda har bir xalqning ijtimoiy ehtiyoj, zaruriyat, qabul qilingan odat, namuna, rasm-rusum, taomil va boshqalar – ijtimoiy shaxsiy me'yorilari mujassamlashgan. Odobsizlik axloqsizlikning bir ko'rinishi sifatida tubanlashgan insonning iymon, vijdon, insof, sharm-hayo, andisha, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi axloqiy mezonlar chegarasidan chekinishidir. Tajribaning ko'rsatishicha, har qanday inson yoshligidan boshlab beodob oilada, beodob kishilar davrasida o'sib ulg'aysa, voyaga etgach uning ruhiyati, vujudiga singib qolgan beodoblik illatini yo'qotish juda qiyin kechadi.

Muxtasar qilib aytganda, yoshlarimizning odobida mayda-chuyda noahloqiylikka yo‘l qo‘ymaslik uchun ularning ongi va tafakkurida sog‘lom turmush tarzi, milliy va umuminsoniy ahloq me‘yorlariga hurmat, ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab singdirish zarur.

Axloqiy tarbiyalangan shaxsning har bir ishi, xatti-harakati boshqalarga unga nisbatad hurmat yoki g‘azabini o‘yg‘otishi mumkin. SHuning uchun bolalikdan boshlab yoshlarda ijobiy ahloq me‘yorlarini singdirish, yaxshi kishilarga ergashib yashashni o‘rgatish har bir o‘qituvchi-tarbiyachining vazifasi xisoblanadi. CHunki, ahloq inson hayoti va kelajagi uchun quyosh nurlarining zarrasidir.

Ma‘lumki, Markaziy Osiyo, jumladan, O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatining o‘z xususiyatlari, qonun-qoidalari, an‘analari, axloq-odobi bo‘lib, u milliy tarixiga ega. Darhaqiqat, ajdodlarimizning jamiyat, tabiat, voqelik, uning yaxlitligi haqida bilimlarni o‘zida aks ettirgan zardo‘shiylik ta‘limotining “Avesto” kitobida ijtimiy-iqtisodiy xayotning muhim mezonini ifodalagan axloq-ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal sifatida tavsiflangan. Bunda axloq jamiyat kishilarining bir-birlari to‘g‘risida yaxshi fikr yuritishlari, ezgu so‘zlar bilan esga olishlari va boshqalar zaruriyatini doimo engillatishga harakat kilishlari nazarda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda sharqda axloqning shakllanishi va ijtimoiy ahamiyat kasb etishda islom dining o‘rni beqiyos. Islom dinining asosiy masalasini insonlarni yaxshilikka, halolikka, adolatga tayanib yashash, yomonlikdan saqlanib da‘vatidir. Musulmonlarning bir-birlarini yaxshilik va adolatga chorlashlari, nojo‘ya ishlardan saqlanishlari ahloqning bosh vazifasi bo‘lib, u Allox tomonidan farz qilinganligi e‘tirof etiladi. Islom axloqining asosida – halollik va taqvo degan insoniy fazilat mavjud. Kimki axloqiy pok va jismonan etu taqvodor bo‘lsa, unday kimsa nopok ishlarni qilmaydi.

Amir Temur o‘zining “Tuzuk”larida fuqarolarni, ayniqsa raxbarlar, sarkardalarning axloqli, adolatli bo‘lishlari, qo‘l ostidagilarga rahm-shafqat doirsida ish tutishlarini ta‘kidlab, “Saltanatni o‘z erkimda saqlash uchun amal qilgan tuzugim” degan, ikkinchi bandda yozadi: “Sulton har narsada adolatpesha bo‘lsin, qoshida insofli adolatli vazirlar

saqlasin, toki podshoh zulm qilgurli bo'lsa, odil vazir uning chorasini topsin. Agarda vazir zolim bo'lsa, ko'p o'tmay saltanant uyi qulaydi.

Adabiyotalar:

1. Mavlonova R. Pedagogika. -T.: 2002.- 80 str.
2. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.
3. Хожиева, Матлуба Шукуровна, and Бахтиёр Туйевич Хамраев. "Нравственное воспитание младших школьников." *Вопросы науки и образования* 10 (135) (2021): 41-45.
4. Ходжаев Болта Қурбонович, Хожиева Матлуба Шукуровна. "Фуқаролик маданиятининг инсон ҳаёти ва жамият тараққиётидаги ўрни: Ходжаев Болта Қурбонович, педагогика фанлари номзоди, доцент, Бухоро давлат университети, Хожиева Матлуба Шукуровна, Бухоро давлат университети педагогика кафедраси ўқувчиси." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 5 (2022): 101-108.
5. <https://islomkarimov.uz/uz/article/oz-tarikhini-bilmajdigan-kechagi-kunini-unutgan-millatning-kelazhagi-joq>